

## O'Quvchilarning Adabiy Tahlil Kompetensiyasini Shakllantirishda Kreativ Yondashuvning Tutgan Rolি

*Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kreativ kompetentlik o'quvchida mustaqil fikrlash sifatlari namoyon bo'lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanishi, kreativ kompetentlik faoliyati intellektual izlanishni taqozo etishi bilan belgilanishi borasida muhim fikrlar ilgari surilgan. Ta'lif jarayonida o'quvchilarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish yo'llari va bosqichlari xususida qimmatli tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, kreativ kompitentlik, psixologik jarayon, tадqiqotlar, tafakkur, tasavvur, faoliik.

Ma'lumki, mamlakatning kelajagi hamda uning ajralmas qismi, eng muhim hayotiy zarurati ta'lif tizimi hisoblanadi. Shu bois, yurtimizda uzliksiz ta'lif tizimini tubdan isloh qilish, takomillashtirish, uni yangi sifat bosqichiga olib chiqish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lif samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, yangi tahrirdagi "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun<sup>2</sup>ning qabul qilinishi bilan uzliksiz ta'lif tizimi orqali har tomonlama yetuk, jahonning eng rivojlangan mamlakatlari yoshlari bilan bellasha oladigan, kreativ fikrlay oladigan o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilayotganligining isbotidir. Qolaversa, davlatimiz rahbarining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida<sup>3</sup> hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lif tizimini takomillashtirish hamda shu orqali o'quvchi-yoshlarning kreativ sifatlarini shakllantirish borasida eng muhim ustuvor vazifalar belgilangan.

Darhaqiqat, shu o'rinda qayd etish lozimki, "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanishni boshlaganiga hali unchalik ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj mavjudligi uning naqadar muhim ekanligini namoyon etmoqda. Axir, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishga o'rgatadi. Ijodkor shaxsnинг shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Ta'lif tizimida yuksak professional mahoratga ega bo'lgan intellektual, ijodkor kadrlar avlodini shakllantirish, mutaxassislarining shaxsiy va kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ta'lif tizimida kreativ kompetentlikni takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarur.

Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lif tizimida kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, David Merriman (2010-yil), Ken Robinson (2007-yil), Fisher J.W,

<sup>1</sup> Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи o'qituvchisi

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni. – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2020-yil 23-sentyabr, 13–16-modda.

<sup>3</sup>2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.



Frey B.S, (2008-yil), Begetto, Skott Barry Kaufman (2013-yil), Ali (2011-yil), Treffinger D.J, (2008-yil)<sup>4</sup> tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalaridan ko‘rish mumkin. Kreativlik o‘quvchini yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflagan holda iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Shuningdek, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilaydi, o‘quvchilar e’tiborini ta’lim jarayonlariga faol jalb etishni ta’minalaydi. Psixolog olimlar V.Davidova, A.Zaporosha, B.Lomovalarning ta’kidlashicha, psixologiyada bu tushuncha ikkita yo‘nalishda: “ijodkor shaxsning hayotiy tajribasi va individual xususiyati (shaxsiyatli omillar); ijodiy tafakkur va uning mahsulari (kreativ omillar-tafakkur ongliligi, aniqligi, o‘zgaruvchanligi, muammolarga nisbatan sezuvchanligi, o‘ziga xosligi, topqirligi, ularning yechimini topishda konstruktivligi) sifatida ko‘rib chiqadi”<sup>5</sup>. Demak, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan o‘qitish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish, egallangan bilimlarini ijodiy tarzda qo‘llash zamonaviy ta’limning asosiy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Tajribali pedagoglar o‘qitish jarayonini isloh qilish yo‘llarini qidirishda davom etib quymasdan, pedagogik texnologiyalari yoki o‘qitish texnologiyalarini yaratishga katta ahamiyat kasb qilmoqda. Shunday ekan, o‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarini aniqlash, shakllantirish, uni rivojlantirish ularning keljakda har tomonlama yetuk, keng fikrli, dunyoqarashi keng insonlar bo‘lib yetishishlariga xizmat qiladi. Buning uchun o‘qituvchining ijodkor, kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur. “Maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun adabiy manba va materiallarning o‘zi kamlik qiladi. Bu yerdagi eng asosiy holat o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligiga bog‘liq. Har qanday asarning badiiy tahlili eng zamonaviy texnologiya va usullarga tayansa, shuningdek, pedagogik jarayondagi barcha qatnashchilarning to‘la faolligi ta’milansagina tegishli samara beradi. Aks holda hech qanday ijobjiy natijaga erishish mumkin bo‘lmaydi”<sup>6</sup>. Kreativ ta’lim texnologiyasini samarasini oshirish uchun turli metodlardan foydalanish kerak. Masalan: “Idrok xarita”, “Atirgul”, “T-sxemasi”, “Zinama-zina”, “FSMU”, “Aqliy hujum”, “Esse”, “bayon, insho” yozish, “Blits so‘rov” kabi texnologiya va metodlar o‘quvchining bilim olish motivatsiyasini oshiradi.

Darvoqe, birgina adabiy ta’lim xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, aytish lozmki, o‘quvchilarda badiiy asarni anglash va tushunish kompetentligini takomillashtirish texnologiyalari hamda ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Bunda ajdodlarimizdan meros qolgan madaniy, ma’naviy obidalar, adabiy asarlar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi va yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida munosib tarbiyalash, ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish muhim omil xizmat qiladi. Adabiy ta’limga innovatsion yondashuv o‘quvchini o‘qitish kerak emas, uni o‘zi o‘qiydigan holatga olib kelish lozimligini ta’minalaydi. Agar o‘quvchi badiiy asarni o‘qib tahlil qilmaydigan bo‘lsa, asar voqealariga munosabat bildira olmasa, adabiy ta’limda yutuqqa erishib bo‘lmaydi. Bunga erishish uchun adabiy ta’limda faoliyat yuritayotgan pedagoglar kreativ kompitentligini yanada rivojlantirishi, didaktik vositalar jumboqli xarakterga ega bo‘lgan, o‘quvchilarni o‘ylanishga, izlanishga, sinab ko‘rishga da’vat qiladigan tarzda tuzilgan bo‘lishi darkor.

Adabiyot darslarida kreativ ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda uning tizimligi, ilmiyligi, qayta tiklanuvchanligi, qo‘siluvchanligi, samaradorligi, motivlashganligi, algoritmligiga e’tibor qaratiladi va ayni mana shu jihatlar adabiy ta’limning samaradorligini ta’minalaydi hamda o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish, ijodkorlik, o‘zining bilim darajasiga tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Buning uchun esa avvalo, o‘qituvchining o‘zi mustaqil fikr egasi va ijodkor bo‘lishi lozim. Ammo o‘qituvchilarda bu ikki holatni birdek rivojlanmaganligi tufayli “uzluksiz ta’lim tizimida shakllantirilayotgan bilim va ko‘nikmalar hamda jamiyatning ijtimoiy, fan va texnologiyalar taraqqiyoti darajasi qo‘yadigan talablar o‘rtasidagi nomutanosiblik”<sup>7</sup> yuzaga kelmoqda.

<sup>4</sup>Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving).—Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

<sup>5</sup>Давыдова Б.В., Запорожца А.В., Ломова Б.Ф. Психологический словарь. – М.: Педагогика, 1983. – 448 с.

<sup>6</sup>To‘xliyev B., Sarimsoqov B.. Adabiyot. Akademik litseylar uchun o‘quv dasturi. – T.: 2000, 4-b.

<sup>7</sup>Sharipov Sh. “O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minalashning nazariyasi va amaliyoti” Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2012. 17-bet.



Demak, adabiyot fani o‘qituvchilarini o‘quvchilarningining yosh, individual hamda psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘zlarining pedagogik faoliyatlarini olib borishi talab etadi. Bola shaxsning shakllanishida muhit, tarbiya, faoliyat bilan bir qatorda insonning ichki kechinmalarini o‘zida mujassam etgan badiiy adabiyotning ham o‘rni beqiyosdir. Shu nuqtay nazardan aytish joizki, bola shaxsiga ta’sir etadigan turli omillar, albatta, badiiy asar qahramoni ruhiyati, sezgilarini, his-hayajonlari, fikr-mulohazalari chizgisida namoyon bo‘ladi. Adabiyot o‘qituvchilarining kreativligi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Badiiy tasvirlardagi aniqlik, bo‘rtiqlik, yorqinlik, jozibadorlik o‘quvchida beixtiyor xis-tuyg‘ularni junbushga keltiradi natijada esa hech qanday irodaviy zo‘riqishsiz osongina asarni idrok etadi. Ushbu jarayonda asar voqealari tasviridagi aniqlik, voqealardagi hayotiylik ixtiyorsiz diqqatning to‘planishi, markazlashuvi va barqarorlashuviga ijobji ta’sir etadi. Adabiy ta’limda innovatsion texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish o‘quvchilar faolligini oshirib, materialni mantiqiy jihatdan o‘zlashtirishga, tahlil etishga va umumiylashtirishlariga imkon yaratadi. Adabiy ta’limga innovatsion yondashuv ta’limda o‘quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, to‘planuvchan, taqsimlanuvchan, faol, ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish uchun mustaqil aqliy mehnat qilish, mustaqil fikr bildiridh asar voqealari tahlilga kreativ yondashish singari ko‘nikmalarni tarkib toptiradi. Adabiy ta’lim mohiyatini aks ettiruvchi innovatsiyon texnologiyalarning samarali turlaridan biri muammoli o‘qitish texnologiyasi hisoblanadi. Metodist olima Q.Husanboyeva “Adabiyot darslarida o‘quvchilar o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan bilimlarni o‘zlarining kuchi, tafakkuri bilimi, va mehnati bilan o‘zlashtirishlarini ta’minalash maqsadida bolalar oldiga muammo shaklida qo‘yish yo‘li bilan amalga oshiriladigan o‘qitish jarayonini muammoli adabiy ta’lim deb atash mumkin”<sup>8</sup> – deydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ta’limda kreativ fikrlash va zamonaviy axborot texnologiyalari foydalanishda kompyuter vositalari yordamida olib boriladigan dars an’anaviy darsdan o‘quv jarayonini tashkil etish va unda ishlatiladigan metodlar bilan ham farqlanadi. O‘qish jarayoni o‘quvchining mustaqil bilim olishiga asoslanadi. Bu tamoyil o‘qitish jarayonida ishtiroy etadigan subyektlarning munosabatini va o‘qituvchining jarayondagi rolini aniqlaydi. Shuning uchun ham axborot texnologiyalari, kompyuter asosida darslarda qiziqish, o‘zini-o‘zi boshqarish, yangi bilimlarni o‘zlashtirib borishga intilish dars oxirigacha saqlanib qoladi. Badiiy asar tahlil jarayonida muammoli ta’limning samaradorligini ta’minlovchi vosita o‘qituvchining ijodkorligi, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni o‘rinli qo‘llash orqli o‘quvchilarining o‘zaro fikr almashishlarini ta’minalash, nazariybadiiy bilimlarini boyitish hamda ularni adabiy asarlarni o‘qib-o‘rganish jarayonida qo‘lga kiritayotgan yutuqlar va izlanishlari bilan yaqindan tanishtirish imkoniyatini yaratadi va o‘qituvchining innovatsion faoliyati ta’sirida o‘quvchilarda ham kreativ kompitentlikni kamol toptiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.-O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2020-yil 23-sentyabr, 13-16-modda.
2. 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). Alexandria-Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Давыдова Б.Б., Запорожца А.В., Ломова Б.Ф. Психологический словарь. – М.: Педагогика, 1983. – 448 с.
5. To‘xliyev B., Sarimsoqov B... Adabiyot. Akademik litseylar uchun o‘quv dasturi. – T.: 2000, 4-b.
6. Sharipov Sh. “O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minalashning nazariyasi va amaliyoti” Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2012. 17-bet.

<sup>8</sup>Husanboyeva Q. Adabiyot-ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2009. 172-bet.



7. Husanboyeva Q. Adabiyot-ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. T: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2009. 172-bet.

